



TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING HAMOHANGLIGI"

Turdiyeva Feruza Jo'raqulovna

Toshkent shahar Sergeli tumani 300-DIU maktabi Tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ta'lif sifatini oshirishda ta'lif va tarbiyaning ahamiyati haqida fikr-mulohazalar berilgan. Shuningdek, ta'lif samaradorligiga erishish uchun davlat tomonidan berilayotgan e'tibor, qonun dasturlari ham izohlab berilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lif tizimi, sifat samaradorligi, tarbiya, davlat qonunlari, xalq ta'lifi bo'linmasi.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev raisligida xalq ta'lifi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Videoselektor yig'ilishida mahalliy hokimliklar mакtab infratuzilmasini yaxshilash, kommunal xizmatlarning uzlusizligini ta'minlash, o'quv yili va kuz-qish mavsumiga tayyorlash kabi masalalarga mas'ulligi belgilandi. Xalq ta'lifi vazirligi esa maktablarda ta'lif sifatini oshirish, ta'lif muassasalarini malakali kadrlar bilan ta'minlash, o'qituvchi mavqeini oshirish, o'quv dasturi va darsliklar mazmunini takomillashtirish vazifalari topshirildi. SHu bilan birga xalqaro ta'lif dasturlarining (STEAM) ijobiy natijalarini o'rgangan holda milliy ta'lif dasturlarini yaratish, xalqaro baholash dasturlarini (PISA va PIRLS -2021) tatbiq etish belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi ta'lif sifatini oshirish bo'yicha qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

Ta'lif sifatini baholash tizimini yaratish

Birinchidan, vazirlik mamlakatimizda ta'lif sifatini baholash tizimini o'rghanib chiqdi. O'rghanish natijalari shuni ko'rsatdiki, shu paytgacha ta'lif tizimi sifati va yagona yondashuvga asoslangan real holatni baholovchi tizim bo'limgan. SHu bois ta'lif sifatini aniqlash uchun bir necha tashqi manbalar ma'lumoti o'rGANilib, xalqaro tajribalar amaliyotga joriy etilgan holda shaffof hamda ob'ektiv baholash mezonlari yaratilmoqda. SHuningdek, mакtab bitiruvchilarining 2019 yilda oliy ta'lif muassasalariga kirish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra 2 mingdan ziyod maktabning bironta o'quvchisi oliy o'quv yurtiga kira olmaganligi aniqlandi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi tomonidan bu yil ilk bor maktablar reytingi e'lon qilindi. Reyting pedagoglar salohiyati, 9-sinf o'quvchilari bilim darajasi, bitiruvchilarning OTMlarga kirish ko'rsatkichlari va ijtimoiy so'rovnomalarga asoslandi.

2020 yilda AQSHning Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) bilan bиргаликда boshlang'ich sinf (2- va 4-sinf) o'quvchilari o'rtasida o'qish (EGRA) va matematika



(EGMA) savodxonligi bo'yicha xalqaro baholash o'tkaziladi. Hozirgi kunda baholashni o'tkazish bo'yicha tayyorgarlik ishlari olib borilmogda. 2021 yilda o'quvchilar bilimi PISA va PIRLS xalqaro baholash dasturlari asosida aniqlanadi. Mazkur xalqaro baholash dasturlari mamlakatimiz ta'lim tizimini boshqa davlatlar bilan solishtirish va kamchiliklarini aniqlashga ko'mak beradi. Joriy yilning oktyabr oyida Sirdaryo viloyatida ta'lim sifatini baholash va viloyatni ta'lim sifati bo'yicha namunali hududga aylantirish bo'yicha amaliy ishlar boshlandi. Tajriba doirasida o'qituvchilar va o'quvchilarning bilimlari baholandı. Bitiruvchilari oliy ta'lim muassasalarga kirmagan maktablar (2000 dan ortiq) birinchi navbatda davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o'tkazish rejalashtirildi.

Pedagog va rahbarlarning uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini yaratish

23 avgustdagagi videoselektorda o'qituvchi va murabbiylarning o'zi ham bilim va saviyasini oshirish, jamoat ishlarida faol ishtirok etish, halol mehnati va tashabbuskorligi bilan bu kasbning obro'sini oshirishi kerakligiga urg'u berildi. SHu bilan birligida, ayrim pedagog xodimlarning bilim va malakasi bugungi zamon talablariga javob bermasligi hamda o'qituvchilarning bilim va saviyasini yuksaltirishda malaka oshirish tizimining o'rni sezilmas yig'ilishda tanqid qilib o'tildi. SHu bois, "Xalq ta'limi xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimi to'g'risida" Prezident qarori loyihasi tayyorlanib, keng muhokamaga qo'yildi. Unda uzlusiz malaka oshirish tizimini amaliyatga joriy etish bo'yicha quyidagilar belgilandi:

a) Xalqaro andozalarga asoslanib xalq ta'limi tizimidagi pedagoglarning kompetensiyalari darajasini belgilovchi yagona kasbiy standart va baholash tizimini ishlab chiqish;

b) umumta'lim maktablarida pedagogik faoliyat yuritish huquqini berish bo'yicha kasbiy litsenziyalash (sertifikatlash) mexanizmlarini ishlab chiqish hamda uni bosqichma-bosqich joriy etish;

v) xalq ta'limi xodimlarning mustaqil ravishda malaka oshirishlarini qo'llab-quvvatlash va ularning kasbiy ehtiyojlarini e'tiborga olish imkoniyatini beradigan malaka oshirishning kredit-modul tizimini joriy etish;

g) amaldagi metodist lavozimini tugatgan holda o'qituvchilarning kasbiy faoliyatini doimiy rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun "mentor" lavozimini joriy etish. Mentorlikka tajribali oliy toifali o'qituvchilar va yuqori malakali kadrlarni jalb etish hamda ularning oyligini oliy toifali o'qituvchilarga nisbatan 1,35 baravar ko'proq etib belgilash;

Kasbiy litsenziya tizimini joriy etish

Ushbu qaror loyihasi bilan o'qituvchilar uchun kasbiy litsenziya tizimini joriy etish taklif etilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"da umumta'lim muassasalari o'qituvchilari va maktab direktorlarini zamonaviy malaka talabları asosida sinovdan o'tkazib, ularning faoliyatini litsenziyalash belgilangan. SHu bois, uni amaliyatga joriy etish taklif etilmoqda. Konsepsiya muvofiq litsenziyalash bosqichma-bosqich joriy etiladi.



Bunda jami o'qituvchilar soniga nisbatan kasbiy litsenziyaga ega o'qituvchilarni 2021 yilda 5 foizga, 2030 yilda 20 foizga etkazish belgilangan.

Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan o'qituvchilar ish haqining bosqichma-bosqich oshirilishi faqatgina kasbiy litsenziyaga ega bo'lgan pedagog kadrlarga tatbiq etilib, o'qituvchilarni o'z ustida ishlashga undaydi. Kasbiy litsenziyani joriy etish maqsadi va ahamiyati yuzasidan keng jamoatchilik orasida tushuntirish ishlari davom ettirilmoqda. YAKuniy loyiha jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda takomillashtiriladi.

Toshkent tajribasi

Ta'lim sifatini oshirish maqsadida "Toshkent tajribasi"ni joriy etish ham taklif etilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan joriy yilning 23 avgust kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilishda ta'lim sifatini oshirish, xususan, poytaxt Toshkent tajribasini respublikaning boshqa hududlarida ommalashtirish yuzasidan bergen topshirig'iga asosan Vazirlar Mahkamasi qarori loyihasi tayyorlandi. Mazkur hujjat ham ayni kunda jamoatchilik tomonidan muhokama etilmoqda.

Maktablarimizda o'zbek tilini o'qitish sifatini oshirish, o'quv dasturlari va darsliklarni takomillashtirish bo'yicha ham islohotlar olib boriladi. Jumladan, o'zbek tilini bilish darajasini baholash uchun 4 ta (eshitish, o'qish, yozish va suhbatlashish) ko'nikmasiga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish rejalashtirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi mamlakatdagi barcha maktab o'quvchilarining sifatli ta'lim olishi uchun «Elektron ta'lim» loyihalarini amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A'zam Xoliqov „Pedagogik mahorat” „Tafakkur-Bo'stoni” Toshkent-2011, 124- bet
2. 2-sinf “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligi 1-qism B-37 Toshkent – 2021 Tuzuvchilar: Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun
3. Siddiqova Sh. „Yosh avlod ma'naviy kamolotida badiiy adabiyotning o'rni” “Izlanish samaralari” 2019-y. 461-bet